

UO'K(UDC, УДК): 81-26

HISOB SO'ZLARNING QIYOSIY TAHLILI: FORS VA O'ZBEK TILLARIDA LINGVOMADANIY O'ZIGA XOSLIK¹²

Xamidova Vazira Salohitdin qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktoranti,

Toshkent, O'zbekiston

vazira.xamidova123@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-0888-5734

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

Ushbu maqolada fors va o'zbek tillarida hisob so'zlarning lingvomadaniy tabiati qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — hisob so'zlarni nafaqat grammatik birlik sifatida, balki millat tafakkuri, qadriyatlari va turmush tarzini ifodalovchi lingvomadaniy fenomen sifatida ilmiy jihatdan o'rganishdir. Maqolada qiyosiy-tarixiy, lingvomadaniy, semantik-struktur va tarjima metodlari uyg'un qo'llanilib, fors va o'zbek tillarida sanash tizimlarining shakl, mazmun hamda madaniy konnotatsiyalari tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ikki tilda odamlarni sanash uchun nafar/kas, hayvonlarni sanash uchun bosh/sar, predmetlarni sanash uchun dona/tā kabi birliklar umumiylikni tashkil etadi. Shu bilan birga, o'zbek tilida xalqona birliklardan - chimdim, hovuch, qultum faol ishlatilsa, fors tilida ko'proq standart birliklar - kilū, litr, metr ustunlik qiladi. Bu farqlar ikki xalqning ijtimoiy-maishiy hayoti va madaniyatida aks etuvchi tafakkur xususiyatlarini namoyon etadi.

Muallif shuningdek, badiiy matnlarda hisob so'zlarning estetik vazifasini ochib beradi. Alisher Navoiy, Hofiz va Sa'diy kabi adiblarning asarlarida “bir tomchi yosh”, “yek dast gol”, “do qatra āb” kabi ifodalar xalqning hayotiy tajribasi, estetik didi va milliy poetik tafakkurining tildagi ifodasini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, maqolada hisob so'zlar milliy o'zlik va madaniy identifikatsiyaning lingvistik belgisi sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda fors va o'zbek tillaridagi numerativlar ilk bor lingvomadaniy, semantik va badiiy-estetik jihatdan kompleks tarzda tahlil etilgan. Natijada, hisob so'zlar grammatik kategoriya bo'lish bilan birga, xalq tafakkuri, qadriyati va hayot manzarasini ifodalovchi madaniy kod sifatida baholanishi ilmiy asoslab berilgan.

Hisob so'zlar, numerativ, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, o'zbek tili, fors tili, semantika, madaniyat.

Received: September 15, 2025

Accepted: September 20, 2025

Available online:
November 16, 2025

¹² **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xamidova V. Hisob so'zlarning qiyosiy tahlili: fors va o'zbek tillarida lingvomadaniy o'ziga xoslik.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 159-172.

COMPARATIVE ANALYSIS OF COUNTING WORDS: LINGUOCULTURAL PECULIARITIES IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Khamidova Vazira Salohitdin qizi

PhD student of Tashkent State

Oriental Studies University,

Tashkent, Uzbekistan

vazira.xamidova123@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-0888-5734

ABSTRACT

This article analyzes the linguocultural nature of numeratives in Persian and Uzbek languages using a comparative approach. The main objective of the research is to study numeratives not only as grammatical units but also as linguocultural phenomena expressing the mindset, values, and lifestyle of a nation. The article employs a combination of comparative-historical, linguocultural, semantic-structural, and translation methods to analyze the form, content, and cultural connotations of counting systems in Persian and Uzbek.

According to the research findings, both languages share common units such as *nafar/kas* for counting people, *bosh/sar* for counting animals, and *dona/tā* for counting objects. However, Uzbek actively uses folk units like *chimdīm*, *hovuch*, *qultum*, while Persian predominantly employs standard units like kilo, liter, meter. These differences reflect the distinctive thought patterns manifested in the social life and culture of the two peoples.

The author also explores the aesthetic function of numeratives in literary texts. In works by writers such as Alisher Navoi, Hafez, and Saadi, expressions like “*bir tomchi yosh*” (*a single tear*), “*yek dast gol*” (*a handful of flowers*), and “*do qatra āb*” (*two drops of water*) demonstrate the linguistic expression of people’s life experiences, aesthetic tastes, and national poetic thinking. Based on this, the article interprets numeratives as linguistic markers of national identity and cultural identification.

The scientific novelty of the research lies in its comprehensive analysis of numeratives in Persian and Uzbek from linguocultural, semantic, and artistic-aesthetic perspectives for the first time. Consequently, it provides a scientific basis for evaluating numeratives not only as a grammatical category but also as a cultural code representing the thinking, values, and worldview of the people.

KEY WORDS

Numeral classifiers, numerative, linguoculture, comparative analysis, Uzbek language, Persian language, semantics, culture.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ СЧЁТНЫХ СЛОВ В ПЕРСИДСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хамидова Вазира Салохитдин кизи

докторант,

Ташкентский государственный

университет востоковедения,

Ташкент, Узбекистан

vazira.xamidova123@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-0888-5734

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье на основе сравнительного подхода анализируется лингвокультурная природа счетных слов в персидском и узбекском языках. Основная цель исследования – изучение счетных слов не только как грамматической единицы, но и как лингвокультурного феномена, выражающего особенности мышления, ценности и образ жизни нации. В статье гармонично сочетаются сравнительно-исторический, лингвокультурологический, семантико-структурный и переводческий методы, анализируются форма, содержание и культурные коннотации систем счисления в персидском и узбекском языках. Согласно результатам исследования, в обоих языках общность составляют такие единицы, как <i>nafar/kas</i> для счета людей, <i>bosh/sar</i> для счета животных, <i>dona/tā</i> для счета предметов. В то же время в узбекском языке активно используются народные единицы - <i>чимдим</i>, <i>ховуч</i>, <i>култум</i>, а в персидском языке преобладают стандартные единицы - <i>кило</i>, <i>литр</i>, <i>метр</i>. Эти различия отражают особенности мышления, проявляющиеся в социально-бытовой жизни и культуре двух народов. В работе также представлен анализ эстетической функции счетных слов в художественных текстах. В произведениях таких авторов, как Алишер Навои, Хафиз и Саади, такие выражения, как “<i>бир томчи ёш</i>”, “<i>ек даст гол</i>”, “<i>до катра аб</i>”, выступают средством языкового выражения жизненного опыта, эстетического вкуса и национального поэтического мышления народа. Исходя из этого в статье счетные слова интерпретируются как лингвистический признак национальной самобытности и культурной идентификации. Научная новизна исследования заключается в том, что нумеративы в персидском и узбекском языках впервые были комплексно проанализированы с лингвокультурологической, семантической и художественно-эстетической точек зрения. В результате научно обосновано, что счетные слова, являясь грамматической категорией, также оцениваются как культурный код, выражающий своеобразие мышления, ценностей и картины жизни народа.	Счетные слова, нумератив, лингвокультура, сравнительный анализ, узбекский язык, персидский язык, семантика, культура.

KIRISH

Tilshunoslikda son va sanash bilan bogʻliq birliklar qadimdan alohida ilmiy qiziqish uygʻotib keladi. Jumladan, oʻzbek tilida hisob soʻzlarning ilk namunalari Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit-turk” asarida uchraydi (Mahmud Koshgʻariy, 1960, 112). XV–XIX asrlarga oid yozma yodgorliklarda ham predmetlarni sanashda turli hisob birliklari qoʻllangan boʻlib, ular ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy hayot bilan uzviy bogʻlangan (Hamdamov P., 1983, 27).

Oʻzbek tilshunosligida hisob soʻzlarning mustaqil ilmiy tadqiqi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. P. Hamdamovning “Hozirgi oʻzbek tilida numerativlar” nomli monografiyasi bu yoʻnalishdagi dastlabki yirik tadqiqot boʻlib, unda numerativlarning strukturaviy va semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilingan (Hamdamov P., 1983, 45). Keyingi yillarda D. Xudayberganova, F.G. Is’hoqov, H. Komilova singari tadqiqotchilar turli adabiy manbalar, xususan, “Boburnoma” va zamonaviy matnlarda hisob soʻzlarning qoʻllanishini oʻrganganlar (Xudayberganova D., 2022, 180).

Fors tilshunosligida esa hisob soʻzlar “مميز/ momeyyiz” yoki “واحد شمارش/ vāhed-e šomāreš” atamaları ostida tadqiq etiladi. H. Anvari va H. Ahmad Giviy “دستور زبان فارسی” asarida fors tilidagi numerativlarning sintaktik vazifalari haqida maʼlumot berganlar (Anvari H., Giviy H., 2006, 131). M. Botiniy esa “توصیف ساختمان دستوری زبان فارسی” nomli kitobida hisob birliklarini ot va son orasida vositachilik qiluvchi grammatik element sifatida talqin etadi (Botiniy M., 2005, 77).

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, fors va oʻzbek tillarida hisob soʻzlar nafaqat grammatik birlik, balki lingvomadaniy koʻrsatkich sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Chunki ular millatning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy-madaniy tasavvurlarini ifodalaydi. Masalan, oʻzbek tilida “bir bosh qoʻy”, “ikki dona non” kabi birliklar mavjud boʻlsa, fors tilida shunga yaqin shakllar: “یک سر گوسفند” (yek sar gūsfand), “دو تا نان” (do tā nun) kabi misollar ishlatiladi.

Shu bois maqolada hisob soʻzlarning lingvomadaniy talqini, fors va oʻzbek tillaridagi oʻxshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotda fors va o‘zbek tillaridagi hisob so‘zlarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishda bir nechta ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Birinchidan, qiyosiy-tarixiy metod qo‘llanib, hisob so‘zlarning ikki til tizimidagi shakl va vazifalari solishtirildi. Masalan, o‘zbek tilidagi “bir bosh qo‘y” iborasi bilan fors tilidagi “یک سر گوسفند” (yek sar gūsfand) ifodasi qiyos qilindi. Ikkinchidan, lingvomadaniy tahlil metodi asosida hisob so‘zlarning milliy madaniyatni aks ettiruvchi qirralari tadqiq qilindi. Masalan, o‘zbek tilidagi “bir juft oyoq kiyim” iborasi turmush tarzini aks ettiruvchi birlik bo‘lsa, fors tilida “یک جفت کفش” (yek joft kafš) birligi shu ma’noda ishlatiladi. Uchinchidan, semantik va struktur tahlil metodlari yordamida hisob so‘zlarning grammatik vazifalari, son va ot bilan birikish qonuniyatlari ko‘rib chiqildi. Bu, xususan, o‘zbek tilidagi “bir parcha non” va fors tilidagi “یک لقمه نان” (yek loqmeh nān) kabi birliklarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. To‘rtinchidan, tarjima metodidan foydalanilib, fors tilidagi hisob so‘zlarning o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidagi birliklarning esa fors tiliga tarjima qilinishi jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy tafovutlar tahlil qilindi. Masalan, forsha “سه تا کتاب” (se tā ketāb) iborasi o‘zbek tiliga “uchta kitob” deb tarjima qilinsa-da, “تا/ tā” hisob so‘zi bevosita tarjimada o‘z aksini topmaydi. Bu hol tarjimada hisob so‘zlarning qisman “yo‘qolib” ketishini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, lingvomadaniy, semantik-struktur va tarjima metodlari uyg‘un holda qo‘llanib, hisob so‘zlarning ikki tildagi lingvomadaniy xususiyatlari aniqlashtirildi.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda hisob so‘zlar, ya’ni numerativlar yoki klassifikatorlar, miqdoriy birliklarni ifodalashda son va ot orasida vositachilik qiluvchi leksik birliklar sifatida talqin etiladi. Ularning vazifasi – sanalayotgan predmetning turini, shaklini, hajmini yoki birlikdagi miqdorini aniq ko‘rsatishdir (Hamdamov P., 1983, 12).

Xitoy, yapon va koreys tillarida hisob so‘zlar grammatik tizimning majburiy elementi bo‘lib, har bir son bilan birga qo‘llanadi. Masalan, xitoy tilida “yī běn shū” (本书 – “bir dona kitob”), yapon tilida “ni-hon enpitsu” (本鉛筆 – “ikki dona

qalam”) kabi birliklar mavjud. Bu tillarda hisob soʻzlarsiz son va ot birikmasi grammatik jihatdan toʻliq boʻlmaydi (Allan K., 1977, 285).

Indo-yevropa tillarida esa hisob soʻzlarning koʻlami torroq. Ingliz tilida a piece of bread, a pair of shoes kabi birliklar mavjud boʻlsa-da, ular majburiy grammatik element emas, balki semantik aniqlik kirituvchi qoʻshimcha birliklardir (Lyons J., 1977, 240).

Oʻzbek tilida hisob soʻzlar koʻproq numerativlar atamasi ostida oʻrganilgan. Ular son bilan ot orasida kelib, predmetning sanash usulini koʻrsatadi: bir bosh qoʻy, ikki dona non, bir juft oyoq kiyim. Bu yerda bosh, dona, juft kabi soʻzlar hisob birliklari hisoblanadi (Hamdamov P., 1983, 47).

Oʻzbek tilshunosligida numerativlar bir nechta semantik guruhlariga boʻlinadi:

1. Shaklga koʻra: bir parcha non, bir boʻlak tosh;
2. Miqdor birligiga koʻra: bir dona olma, ikki qop un;
3. Juftlikka koʻra: bir juft paypoq, bir juft qush;
4. Hayvonlarga nisbatan: bir bosh sigir, ikki bosh qoʻy;
5. Abstrakt birliklarga nisbatan: bir tomchi koʻz yoshi, bir chimdim tuz.

Bu tasnif ularning semantik jihatdan boy va milliy madaniyat bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Masalan, bosh numerativi asosan chorva mollari bilan qoʻllanadi, bu esa xalqning chorvachilikka asoslangan turmush tarzini ifodalaydi (Isʼhoqov F.G., Komilova H., 2010, 62).

Fors tilida hisob soʻzlar asosan “تا/ tā”, “نفر/ nafar”, “سر/ sar”, “دست/ dast”, “جفت/ joft” kabi birliklarda uchraydi. Masalan:

- yek tā ketāb (یک تا کتاب “bir dona kitob”),
 se nafar bache (سه نفر بچه “uch nafar bola”),
 do sar gāv (دو سر گاو “ikki bosh sigir”),
 yek dast gol (یک دست گل “bir dasta gul”),

yek joft kafš (یک جفت کفش – “bir juft oyoq kiyim”).

Fors tilidagi hisob soʻzlarning koʻpchiligi semantik jihatdan oʻzbek tilidagi birliklarga juda yaqin. Biroq, تا/ tā hisob soʻzi deyarli barcha predmetlar bilan ishlatilishi mumkin boʻlib, u umumiy sanash funksiyasini bajaradi (Anvari H., Giviy H., 2006, 132). Shu bois u oʻzbek tilidagi dona hisob soʻzining funksional ekvivalenti sanaladi.

Oʻzbek va fors tillarida hisob soʻzlar umumiylik va farqlarga ega.

Umumiylik tarafi har ikki tilda hayvonlar uchun bosh / سر, odamlar uchun nafar / kishi, predmetlar uchun dona / tā ishlatiladi.

Farqli tomoni esa oʻzbek tilida hisob soʻzlarning ishlatilishi koʻproq kontekstga bogʻliq boʻlsa, fors tilida تا/ tā umumiy hisob soʻzi keng qoʻllanadi. Bundan tashqari, fors tilida دست(dast) va جفت(joft) hisob birliklari koʻproq ishlatiladi, oʻzbek tilida esa juft kamroq qoʻllanadi.

Shunday qilib, hisob soʻzlar nafaqat grammatik birlik sifatida, balki xalqning turmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi lingvomadaniy koʻrsatkich sifatida ham alohida oʻrin tutadi.

Hisob soʻzlarning oʻziga xosligi shundaki, ular grammatik birlikdan tashqari, milliy-madaniy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Har ikki tilda ularning qoʻllanilishida xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va tafakkuri yaqqol namoyon boʻladi.

Oʻzbek tilida qarindoshlik munosabatlari va oila doirasida ishlatiladigan hisob soʻzlar koʻpincha nafar, kishi birliklari bilan ifodalanadi: “uch nafar bola”, “ikki kishi mehmon”. Bu yerda nafar soʻzi koʻproq rasmiy uslubga xos, kishi esa ogʻzaki nutqda keng qoʻllanadi (Hamdamov P., 1983, 51).

Fors tilida esa xuddi shu vazifani “نفر/ nafar” soʻzi bajaradi:

se nafar bache (سه نفر بچه – uch nafar bola),

do nafar dust (دو نفر دوست – ikki nafar doʻst).

Bu oʻxshashlik ikki xalqda ham insonni sanash uchun maxsus birlik ajratilganini koʻrsatadi. Shuningdek, fors tilida “kas” (کس) birligi ham shaxslar uchun ishlatiladi: yek kas (یک کس – bir kishi).

O'zbek tilida chorvachilikka aloqador bosh numerativi keng qo'llanadi: "bir bosh qo'y", "o'n bosh sigir". Bu xalq xo'jalik faoliyatining asrlar davomida chorvachilikka tayanib kelganligini bildiradi (Is'hoqov F.G., Komilova H., 2010, 63).

Fors tilida ham hayvonlarni sanashda "سر/ sar" ishlatiladi:

yek sar gūsband (یک سر گوسفند – bir bosh qo'y),

do sar gāv (دو سر گاو – ikki bosh sigir).

Bu hol turkiy va eroniy xalqlarning o'xshash xo'jalik an'analari ega bo'lganini lingvistik jihatdan ko'rsatadi.

O'zbek tilida: "bir kilo un", "bir litr sut", "bir metr gazlama" kabi o'lchov birliklari keng qo'llanadi. Shuningdek, xalqona ifodalar ham mavjud: "bir chimdim tuz", "bir qultum suv", "bir hovuch yong'oq". Bu birliklar milliy hayot tarzini va xalqning madaniy tajribasini ifodalaydi.

Fors tilida shunga yaqin shakllar mavjud:

yek kilū gandum (یک کیلو گندم – bir kilo bug'doy),

yek litr šir (یک لیتر شیر – bir litr sut),

yek metr pārsiyā (یک متر پارچه – bir metr gazlama).

Shuningdek, xalqona o'lchov birliklari ham uchraydi: yek mošt gerdu (یک مشت – bir hovuch yong'oq), yek qatra āb (یک قطره آب – bir tomchi suv). Bu o'xshashlik ikki xalqning maishiy hayoti va turmush tarzida umumiy jihatlarni ko'rsatadi.

Hisob so'zlar faqat kundalik hayotda emas, balki badiiy adabiyotda ham muhim estetik vazifa bajaradi. O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy, Bobur va keyingi davr adiblarida numerativlarning obrazlilik yaratishdagi roli katta. Masalan, Navoiyda: "bir tomchi yosh", "bir dasta gul" kabi iboralar uchraydi (Navoiy A., 1987, 215).

Fors adabiyotida ham shunga o'xshash misollar ko'p. Masalan, Sa'diy Sheroziy she'rida:

do qatra āb (دو قطره آب – ikki tomchi suv),

yek dast gol (یک دست گل – bir dasta gul) kabi birliklar ishlatiladi.

Bu misollar badiiy nutqda hisob soʻzlarning nafaqat grammatik, balki poetik-estetik ahamiyat kasb etishini koʻrsatadi.

Oʻzbek va fors tillarida bosh/sar, nafar, dona/tā kabi hisob soʻzlarning qoʻllanishi umumiylikni bildiradi.

Oʻzbek tilida xalqona birliklar (chimdim, hovuch, qultum) koʻproq ishlatiladi, fors tilida esa xalqona birliklar bilan birga standart birliklar (kilū, litr, metr) faol qoʻllanadi.

Har ikki tilda badiiy adabiyotda hisob soʻzlar obrazlilikni kuchaytirish, milliy dunyoqarashni aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Hisob soʻzlar ikki tilda ham til va madaniyat kesishgan nuqtada turadigan birliklardir. Ular yordamida nafaqat predmetlar sanaladi, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va turmush tarzi ham namoyon boʻladi. Shu bois hisob soʻzlarni lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilish muhim ilmiy natijalarga olib keladi.

Oʻzbek tilida bosh hisob soʻzi koʻpincha chorvachilikka oid birliklarda qoʻllanadi: bir bosh qoʻy, oʻn bosh sigir. Bu xalq xoʻjaligi asrlar davomida chorvachilikka tayanib kelganligini koʻrsatadi (Hamdamov P., 1983, 47). Fors tilida esa xuddi shu vazifa “سر/ sar” yordamida ifodalanadi: yek sar gūsfand (یک سر گوسفند – bir bosh qoʻy). Har ikkala tilning bu jihati madaniy umumiylikni bildiradi.

Shuningdek, oʻzbek tilida juft numerativi nikoh va oilaviy qadriyatlarni ifodalashda ishlatiladi: bir juft uzuk, bir juft kishi. Fors tilida esa “جفت/ joft” keng qoʻllanadi: yek joft kafš (یک جفت کفش – bir juft oyoq kiyim). Bu birliklar xalqning ijtimoiy hayotida “juftlik” konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi.

Hisob soʻzlar xalqning maʼnaviy dunyoqarashini ham aks ettiradi. Masalan, oʻzbek tilida “bir chimdim tuz”, “bir qultum suv”, “bir hovuch yongʻoq” kabi birliklar mavjud boʻlib, ular xalq ogʻzaki nutqida hayotiy tajribaga asoslangan xalqona oʻlchov birliklarini koʻrsatadi. Fors tilida esa shunga yaqin shakllar: yek

mošt gerdu (یک مشت گردو – bir hovuch yong‘oq), yek qatra āb (یک قطره آب – bir tomchi suv) uchraydi.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, ikki xalq tabiat va hayotni idrok etishda o‘xshash metaforik qarashlarga ega: suv tomchisi, hovuch, chimdim kabi o‘lchov birliklari ma’naviy-estetik ahamiyat ham kasb etadi (Xudayberganova D., 2022, 183).

Badiiy matnlarda hisob so‘zlarning ishlatilishi milliy poetik tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek adabiyotida Alisher Navoiyda: “bir tomchi yosh”, “bir dasta gul” kabi ifodalar obrazlilik yaratadi (Navoiy A., 1987, 215). Fors adabiyotida esa Hofiz Sheroziyda “do qatra āb” – “دو قطره آب” (ikki tomchi suv) kabi birliklar (Hofiz, 1983, 142), Sa’diyda “yek dast gol” – “یک دست گل” (bir dasta gul) kabi birliklar (Sa’diy, 2001, 55) poetik-estetik ahamiyatga ega.

Demak, hisob so‘zlar faqat sanash vositasi emas, balki xalqning dunyoqarashi, milliy qadriyati va poetik tafakkurini ifodalovchi madaniy kod sifatida ham xizmat qiladi.

Har ikkala tilda ham odamlarni sanash uchun nafar, hayvonlarni sanash uchun bosh/sar, predmetlarni sanash uchun dona/tā keng qo‘llanadi.

O‘zbek tili ko‘proq og‘zaki nutqdagi xalqona birliklarga tayanadi, fors tilida esa adabiy va rasmiy birliklar (nafar, tā, joft, dast) keng qo‘llanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari fors va o‘zbek tillarida hisob so‘zlarning nafaqat grammatik birlik, balki lingvomadaniy ko‘rsatkich sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. O‘rganilgan materiallar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hisob so‘zlarning tarixiy ildizlari. O‘zbek tilida hisob so‘zlarning dastlabki shakllari qadimgi turkiy yozma manbalarda, jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida turli predmetlarni sanashga oid birliklar keltirilgan (Mahmud Koshg‘ariy, 1960, 112). Shuningdek, “Qutadg‘u bilig” asarida ham predmetlarning sanalishiga xizmat qiluvchi maxsus birliklar uchraydi (Yusuf Xos Hojib, 1986, 215). Fors tilida esa ular grammatik kategoriya sifatida keyingi davrlarda ilmiy izohlangan (Botiniy M., 2005, 77).

Har ikkala tilda ham insonlarni sanash uchun nafar, hayvonlarni sanash uchun bosh/sar, predmetlarni sanash uchun dona/tā ishlatiladi. Bu oʻxshashlik turkiy va eroniy xalqlarning madaniy anʼanalari va hayot tarzidagi umumiy qirralarni aks ettiradi (Hamdamov P., 1983, 51; Anvari H., Giviy H., 2006, 132).

Oʻzbek tilida xalqona birliklar (chimdim, hovuch, qultum) keng qoʻllanadi, fors tilida esa standart oʻlchov birliklari (kilū, litr, metr) faolroq ishlatiladi. Bundan tashqari, fors tilida ت/ tā umumiy hisob soʻzi barcha predmetlar bilan keng qoʻllanib, oʻzbek tilidagi dona numerativining ekvivalenti sifatida xizmat qiladi.

2. Lingvomadaniy vazifasi. Hisob soʻzlar har ikki tilda xalqning maʼnaviy qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashini ifodalaydi. Masalan, oʻzbek tilida bir bosh qoʻy, bir juft uzuk kabi birliklar milliy turmush tarzini ifodalasa, fors tilida yek sar gūsfand, yek joft kafš kabi shakllar shu maʼnoni beradi (Isʼhoqov F.G., Komilova H., 2010, 62).

3. Badiiy-estetik ahamiyati. Hisob soʻzlar badiiy matnlarda obrazlilik yaratish, poetik-estetik taʼsirni kuchaytirish vositasi sifatida faol qoʻllanadi. Navoiyda “bir tomchi yosh”, Hofiz va Saʼdiyning sheʼrlarida esa “do qatra āb”, “yek dast gol” kabi misollar bu birliklarning poetik ahamiyatini koʻrsatadi (Navoiy A., 1987, 215).

Umuman olganda, fors va oʻzbek tillarida hisob soʻzlarning lingvomadaniy xususiyatlari ularning grammatik vazifalaridan tashqari, xalqning madaniy manzarasini ifodalashda ham muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi.

Hisob soʻzlarning til tizimidagi oʻrni turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, P. Hamdamov ularni oʻzbek tilidagi maxsus grammatik birlik sifatida baholaydi va ularning semantik guruhlarini koʻrsatadi (Hamdamov P., 1983, 12). Shu nuqtayi nazardan, hisob soʻzlarning vazifasi son va ot oʻrtasida vositachilik qilish bilan cheklangan.

Biroq D. Xudayberganova “Boburnoma” asari asosida olib borgan izlanishlarida hisob soʻzlarning badiiy-estetik funksiyasiga eʼtibor qaratadi. Unga koʻra, numerativlar obrazlilik yaratishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi (Xudayberganova D., 2022, 182). Demak, hisob soʻzlarning faqat grammatik emas, balki stilistik va estetik funksiyasi ham mavjud.

Fors tilshunosligida ham shunga o'xshash munozaralar kuzatiladi. H. Anvariylar va H. Ahmad Giviy ularni asosan sintaktik birlik sifatida ko'rib, gapda son va ot o'rtasidagi bog'lovchi element deb ta'riflaydi (Anvariylar H., Giviy H., 2006, 132). M. Botiniyesa hisob so'zlarning vazifasini yanada kengroq tushunib, ularni grammatik tuzilmaning morfosintaktik elementi sifatida baholaydi (Botiniy M., 2005, 77).

Mazkur tadqiqot davomida shuni kuzatish mumkinki, hisob so'zlarni faqat grammatik birlik sifatida ko'rish ularning haqiqiy mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki hisob so'zlar lingvomadaniy kod vazifasini ham bajaradi: ular orqali xalqning turmush tarzi, urf-odati, qadriyati va dunyoqarashi ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilidagi bir bosh qo'y iborasi nafaqat sanash usulini, balki xalqning chorvachilikka asoslangan hayot tarzini ham bildiradi. Fors tilidagi yek sar gūsfand (يک سر گوسفند) iborasi ham shu mazmunga yaqin, ammo madaniy fon jihatidan eroniy jamiyatga xos o'ziga xosliklarni anglatadi.

Shunday qilib, hisob so'zlarning qiyosiy tadqiqi shuni ko'rsatadiki, ular ikki tilda ham madaniy manzaraning lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif fikricha, kelajak tadqiqotlarda hisob so'zlarni faqat grammatik birlik emas, balki madaniy-semantik indikator sifatida o'rganish dolzarb vazifalardan biridir.

XULOSA

Fors va o'zbek tillarida hisob so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ular nafaqat grammatik birlik, balki xalqning madaniy manzarasini ifodalovchi muhim vosita hamdir.

Birinchidan, hisob so'zlar til va madaniyat kesishgan nuqtada turadi. Ular orqali nafaqat predmetlar sanaladi, balki xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi ham aks etadi.

Ikkinchidan, fors va o'zbek tillarida umumiyliklar mavjud: odamlarni sanash uchun maxsus birliklar (nafar, kishi, kas), hayvonlarni sanash uchun bosh/sar, predmetlarni sanash uchun dona/tā kabi birliklarning qo'llanilishi xalqlar tafakkuridagi o'xshashliklarni ko'rsatadi.

Uchinchidan, har ikki tilda milliy madaniyat bilan bogʻliq farqlar ham mavjud. Oʻzbek tilida xalqona birliklar (chimdim, qultum, hovuch) keng tarqalgan boʻlsa, fors tilida standart birliklar (kilū, litr, metr) koʻproq qoʻllanadi.

Toʻrtinchidan, badiiy adabiyotda hisob soʻzlarning poetik va estetik vazifasi alohida oʻrin tutadi. Ular obrazlilik yaratish, xalqona tasvirni boyitish va milliy tafakkurni estetik shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, hisob soʻzlarni faqat grammatik birlik sifatida emas, balki lingvomadaniy fenomen sifatida oʻrganish zarur. Bu yondashuv tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada yangi ilmiy natijalarga olib keladi va qiyosiy tilshunoslikka qoʻshimcha ilmiy qiymat keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Hamdamov P. Hozirgi oʻzbek tilida numerativlar. – Toshkent: Fan, 1983. – 208 b.
2. Is’hoqov, F. G., Komilova, H. Oʻzbek tilida numerativlarning semantik va stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2010. – 332 b.
3. Koshgʻariy, M. Devonu lugʻotit-turk. – Toshkent: Fan, 1960. – 234 b.
4. Lyons, J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
5. Navoiy, A. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1987. – 632 b.
6. Nurmonov, A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2002. – 592 b.
7. Xudayberganova, D. Badiiy asarda numerativlarning qoʻllanilish xususiyatlari (“Boburnoma” asari asosida) // Til va adabiyot. – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 178–185.
8. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. – Toshkent: Yozuvchi, 1986. – 560 b.
9. 1385. انتشارات فاطمی، تهران. دستور زبان فارسی. انوری، حسن؛ احمدی گیوی، حسن.
10. 1384. انتشارات امیرکبیر، تهران. توصیف ساختمان دستوری زبان فارسی. باطنی، محمد.
11. 1983. انتشارات امیرکبیر، تهران. دیوان حافظ. حافظ شیرازی.
12. 2001. انتشارات امیرکبیر، تهران. گلستان. سعدی شیرازی.

REFERENCES

1. Allan, K. (1977). Classifiers. *Language*, 53(2), 285–311.
2. Anvarī, H., & Givī, H. A. (2006). *Dastur-e zabān-e fārsi* [Persian grammar]. Tehran: Fatemi Publications. (تهران: دستور زبان فارسی. انوری، حسن؛ احمدی گیوی، حسن) (انتشارات فاطمی، 1385)
3. Bāṭinī, M. (2005). *Tavsīf-e sāxtemān-e dastūrī-ye zabān-e fārsi* [Description of the grammatical structure of Persian]. Tehran: Amirkabir Publications. (باطنی، محمد) (1384) امیرکبیر، تهران: توصیف ساختمان دستوری زبان فارسی.
4. Hamdamov, P. (1983). *Hozirgi o‘zbek tilida numerativlar* [Numeratives in the modern Uzbek language]. Tashkent: Fan.
5. Hāfez-e Sherāzī. (1983). *Dīvān-e Hāfez* [Collected poems of Hafez]. Tehran: Amirkabir Publications. (1983) امیرکبیر، تهران: دیوان حافظ. حافظ شیرازی.
6. Is’hoqov, F. G., & Komilova, H. (2010). *O‘zbek tilida numerativlarning semantik va stilistik xususiyatlari* [Semantic and stylistic features of numeratives in Uzbek]. Tashkent: Fan.
7. Khudayberganova, D. (2022). *Badiiy asarda numerativlarning qo‘llanilish xususiyatlari* (“Boburnoma” asari asosida) [Features of using numeratives in fiction (based on “Baburnama”)]. *Til va adabiyot*, (2), 178–185.
8. Koshg‘ariy, M. (1960). *Devonu lug‘otit-turk* [Compendium of the Turkic dialects]. Tashkent: Fan.
9. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Navoiy, A. (1987). *Khazoyin ul-maoniy* [Treasures of meanings]. Tashkent: G‘afur G‘ulom Publishing House.
11. Sa’dī-e Sherāzī. (2001). *Golestān* [The Rose Garden]. Tehran: Amirkabir Publications. (2001) امیرکبیر، تهران: گلستان. سعدی شیرازی.
12. Yūsuf Khāṣ Ḥojib. (1986). *Qutadg‘u bilig* [Wisdom of Royal Glory]. Tashkent: Yozuvchi.